



SHAXS XARAKTERINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FRAZESEMANTIK MAYDONLARIDA ISHLATILADIGAN METAFORIK IBORALARNING LINGVO - KOGNITIV TAHLILI

¹Axmedova Matluba Ibragimjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

²Yigitaliyeva Handona Zokirjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bo'limi Lingvistika ingliz tili mutaxassisligi II bosqich magistranti.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7783688>

ARTICLE INFO

Received: 20th March 2023

Accepted: 28th March 2023

Online: 29th March 2023

KEY WORDS

Idiomalar, tilshunoslik, semantik tahlil fraziologiya, fraziologik birliklar, emotsional ekspressivlik, fraziologik tarkib.

ABSTRACT

Ushbu maqolada insonning xarakterini ifodalaydigan metaforik iboralarning badiiy asarlardan keltirilgan namunalari asosida izohlamochimiz. Quyida tarkibida inson xarakter - xususiyatiga oid leksemalar qatnashgan ayrim o'zbekcha metaforik iboralarning lingvo - kognitiv tahlilini keltiramiz hamda iboralarning ne chog'liq xalq madaniyatiga, mentalitetiga aloqadorligini aniqlaymiz. Tilimizdagi frazeologik birliklarning aksariyati insonning ichki va tashqi olami bilan bog'liq faoliyati orqali shakllanadi. Shu sababli ham bunday iboralar ifodalagan ma'nolarning zamirida inson, uning xatti-harakatlari, fe'l - atvori, yashash tarzi va fikr - o'ylari yotadi. Shuning uchun ham bir qator tilshunos olimlar o'z tadqiqotlarida inson xatti-harakatlari va fe'l - atvorlarini aks ettiruvchi frazeologizmlarni o'rganishgan. Ham ingliz, ham o'zbek tilida insonni xarakterini tasvirlaydigan ko'plab metaforaga asoslangan frazeologik birliklar mavjudki, ular kishilarning turli xarakterli xususiyatlarini namoyon etadi. Tadqiqotimiz davomida insonning ijobiy hamda salbiy xarakterini bildiradigan ko'plab metaforaga asoslangan frazeologik birliklar mavjudligiga amin bo'ldik.

Ingliz va o'zbek tilida insonni xarakterini tasvirlaydigan ko'plab metaforaga asoslangan frazeologik birliklar mavjudki, ular kishilarning turli xarakterli xususiyatlarini namoyon etadi. Maqolamiz davomida insonning ijobiy hamda salbiy xarakterini bildiradigan ko'plab metaforaga asoslangan frazeologik birliklar mavjudligiga amin bo'ldik. Masalan, «**Dum bermoq**» metaforik frazeologik birlikni misol tariqasida oladigan bo'lsak, uning ma'nosi «**doim birovga ergashib yoki unga xushomad qilib, birga ortidan yuradigan odam, shotir**» hisoblanadi. Ushbu iboraning metaforik frazeologizm ekanligiga sabab, poliz ekinlarining harakati insonga ko'chganligidadir. Frazeologik birlik salbiy ma'noda qo'llaniladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi «**dumini qismoq**» metaforik frazeologizmi ham salbiy ma'no



ottenkasiga ega: «*itoatkorona ish tutmoq, bo'ysunuvchan, itoatkor bo'lmoq*». Ushbu frazeologizmdagi hayvon harakati insonga ko'chib, ko'chma ma'no hosil qilmoqda. Yuqoridagi har ikkala metaforik frazeologizmlar tarkibida ham «*dum*» so'zi mavjudligi, u o'zbek milliy madaniyati, har kungi hayot tarzida ma'lum ma'noda muhim o'rin egallashini isbotlaydi. «Oyog'iga hino qo'ygan» (dangasa, yalqov, sekin ishlaydigan, o'zini urintirmaydigan) metaforik frazeologik birligi ham salbiy ma'noni ifodalaydigan leksik birlikdir, u to'laligicha o'zbek milliy madaniyati, hayot va turmush tarzi, urf - odatlarini o'zida mujassam etgan desak mubolag'a bo'lmaydi, oddiy ish - harakat yillar o'tib, frazeologizmga aylangani vaqt o'tishi bilan til jarayoni ma'lum bir o'zgarishlarni yuzaga keltirishini isbotlaydi. Bunday frazeologizmlar inson xarakterini ko'rsatish bilan birga xalq urf - odatlarini ham kishilar bilan naqadar chambarchas ekanligini isbotlaydi. Insonlardagi salbiy xarakterni ifodalaydigan metaforik frazeologizmlarni tahlil etishda davom etar ekanmiz yana bir o'zbek xalq milliy madaniyati, urf - odatlarini o'zida mujassam etgan iborani misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin: «*etagini o'pmoq*» (mute bo'lmoq, aytganini qiladigan holda bo'ysunmoq). Ushbu metaforik frazeologik birlikning etimologik tahlilini amalga oshirish davomida uning diniy - tarixiy konseptga ega ekanligiga guvoh bo'ldik. Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan davlatlar podshohlarining qabuliga kelgan fuqaro yoki amaldorlar hukmdorga nisbatan hurmat - ehtiromlarini ko'rsatish belgisi sifatida ularning kiyimlari etaklarini o'pib qo'yganlar yoki diniy peshvo, ulamo, pirlarning shogirdlari ustozlariga nisbatan hurmat va ehtirom nuqtai - nazaridan shu harakatni bajarganlar. Keyinchalik ushbu ish - harakat vaqtlar va zamonlar o'taverishi, jamiyat o'zgarishi bilan, tildagi ba'zi bir o'zgarishlar sababli ham boshqa ma'noni ifodalaydigan bo'ldi. «*Etagini o'pmoq*» ish - harakati salbiy ottenkali frazeologizmga aylandi. Bugungi kunda u «*laganbardorlikni ma'qul ko'radigan*» kishilarga nisbatan ishlatiladigan leksik birlikga aylandi.

Yuqoridagi metaforik frazeologizm yana bir marta iboralar har qanday xalqning milliy - madaniy hayotini aks etuvchi birlik ekanligini isbotlaydi. Norasmiy o'zbek tilida ishlatiladigan «*etagi ochilmoq*» metaforik frazeologik birlik esa «*siri ochilmoq, biror aybi, kamchiligi ma'lum bo'lib qolmoq*» degan ma'noda qo'llaniladi. Ushbu frazeologik birlik ham oddiy gapdan ma'lum bir vaqt o'tishi tufayli frazeologizmga aylangan leksik birlik sifatida ma'lum. Oddiy ish - harakat ko'chma ma'noga ega bo'lib, metaforik frazeologizm sifatida tilde qo'llanilib kelinmoqda.

«*Chovli solmoq*» (urmoq) iborasining ma'nosi «*birovning ishiga aralashmoq; har narsaga suqilavermoq, burun suqmoq*» hisoblanadi. Xuddi shunday ma'noda «burnini (tumshug'ini) tiqmoq» iborasi ham mavjud: «biror ish, gap - so'z va shu kabilarga aralashmoq, suqilmoq». «*Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi? Xizmatkorlarni eri topsin*» (Oybek, «Qutlug' qon»). Yuqoridagi frazeologizmning variant «tumshuq tiqmoq (suqmoq)» hisoblanib, uning ma'nosi «biror ish, narsaga aloqasi bo'lmagan holda o'rinsiz aralashmoq»dir: «*Birinchidan, meni afandixon demang. Ikkinchidan, tushunmagan ishingizga tumshug'ingizni suqmang*» (Said Ahmad. «Hukm»).

Insonlardagi salbiy xarakterni ifodalaydigan metaforik frazeologik birliklarning ekvivalenti ingliz tilida ham mavjud: «*to be a Paul Pry*» metaforik frazeologizmi ham «*doimiy tarzda boshqalarning ishiga aralashib yuradigan*» kishiga nisbatan qo'llaniladi: (someone who is always interfering in other people's affairs, an objectionable busybody).



Yuqoridagi matnlardan ma'lumki, bu iboralar kerak bo'lmagan o'rinda, noo'rin aralashaveradigan insonlarga nisbatan salbiy ma'noda ishlatiladi. Insonning xarakterini ifodalaydigan metaforik frazeologik birliklarni tahlil qilar ekanmiz, din bilan aloqador bir nechta salbiy ma'noni ifodalaydigan leksik birliklarga ham duch keldik: «**shaytonning mardikori**» (behuda ishlar bilan tinib - tinchimas odam). «**Shaytoni zo'r**» (kuchli) iborasi ham diniy konseptga ega, «**sho'xligi (shaytonligi) tez va kuchli qo'zg'aladigan, shunday xususiyatli**» kishiga nisbatan qo'llaniladi. «**Shaytonga firib beradi**» frazeologizmi ham diniy hayotni tasvirlaydigan iboralardan biri bo'lib, «**hiyla - nayrangda shaytonni ham yo'lda qoldiradigan, o'taketgan firibgar**» kishini tasvirlashda ishlatiladi.

Ushbu frazeologik birliklar o'zbek milliy madaniyati, dini, tarixi bilan aloqador ekanligiga shubha yo'q, zero o'zbek xalqi dunyodagi eng dindor xalqlardan biridir, har kungi turmush tarzida, hayotida din o'zbek xalqi uchun eng muhim mavzu va masala bo'lib kelgan, o'z - o'zidan din mavzusi xalq tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. «**Shayton**» so'zi Islom dinida faqatgina salbiy ma'noda tushuniladi, qabul qilinadi va yuqorida misol tariqasida keltirilgan iboralar tarkibida ham ushbu leksik birlik qo'llanilgan. Ular insonlardagi salbiy xususiyatni ochib berishda ishlatiladi, frazeologik birliklar tinglovchiga kuchli ta'sir qiladigan leksik birlikdir, shubha yo'qki, diniy leksik birliklarni o'z ichiga olgan metaforik frazeologik birliklar boshqa so'zlarga qaraganda kuchliroq ta'sir kuchiga ega. Shu sababdan ham ular xalq tilida mudom qo'llanilib kelinadi. «**Qanotsiz chittak**» (bir joyda muqim turolmaydigan, qo'nimsiz, beqaror) metaforik frazeologik birligi esa yengil - tabiat odamlar haqida so'z borganda qo'llaniladi, u ham salbiy kontekstda insonlar xarakteriga baho berishda ishlatiladi. O'zbek tilidagi o'ziga xos metaforaga asoslangan frazeologik birliklardan yana biri bu «**puchuk obdasta**» hisoblanadi, u o'zbek milliy - madaniy hayotini aks etuvchi iboradir, uzoq tarixga va boy madaniyatga ega o'zbeklarning har kungi hayotida qo'llanilib kelinadigan «**obdasta**» buyumi ushbu frazeologik birlikning shakllanishida asosiy vazifani bajargan, u «**o'ziga aloqasi yo'q yoki aqli yetmaydigan gap - so'zga, ishga aralashaveradigan**» kishiga qarata uni kamsitib, tanbeh yuzasidan aytiladigan iboradir. Keyingi misol tariqasida keltirilgan frazeologik birligimiz ham insonlardagi salbiy xarakterni ifodalashga xizmat qiladi: «**bir qop go'sht**». U «**qo'lidan hech narsa kelmaydigan, landavur odam**» haqida so'z borganda qo'llaniladi. Yuqoridagi iboraga yaqin ma'noga «**na don, na somon**» metaforik frazeologizmi ham ega. Milliy - madaniy hayotni aks etuvchi iboralardan yana biri bu «**gapga temirchi**» metaforik frazeologizmidir. U «**gapni juda cho'zib yuboradigan, ezmaliq qiladigan; ezma**» xarakterli kishilarni tasvirlashda qo'llaniladi. Ma'lumki, temirchilik kasbi Markaziy Osiyo xalqlari orasida qadimdan eng mashhur bo'lib kelgan kasblardan biridir.

References:

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T.:O'TA. 1976. 5-son
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.:Fan.1983
3. Antrushina G.V. English Lexicology. – M. 1985
4. Bafoyeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. – T.: O'TA. 2003. 2-son.-B.43-45
5. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.1967